

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING “BOBURNOMA” ASARI DUNYO BOBURSHUNOSLARI NIGOHIDA

Karimova Maxliyoxon Ibragimjon qizi

Andijon davlat chet tillari instituti talabasi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada jahon siyosati va madaniyati tarixida Zahiriddin Muhammad Bobur qanday o'rin tutishi, uning qalamiga mansub “Boburnoma” asari ham dunyo sharqshunosligida, jahon tarjimashunosligi tarixidagi mavqei haqida so'z boradi

Kalit so'zlar: siyosati, madaniyati, mansub, sharqshunosligida, tarjimashunosligi, mavqei

Abstract:

This article talks about the place of Zahiriddin Muhammad Babur in the history of world politics and culture, and the position of his work "Boburnoma" in world oriental studies and in the history of world translation studies.

Keywords: politics, culture, belonging, oriental studies, translation studies, status
Jahon adabiyoti, madaniyati va san'ati xazinasini bunyod etish hamda boyitishda qadimiy va boy tarixga ega bo'lgan o'zbek xalqining ham munosib o'rni, beqiyos xissasi bor. Uzoq tarixiy jarayon davomida xalqimiz dunyoga ko'plab ajoyib ilmfan, san'at va adabiyot namoyondalarini yetkazib bergan. Buyuk ajdodlarimiz yaratgan ilmiy, badiiy, qomusiy asarlar necha ming yillardan buyon turli xalqlar tomonidan mutolaa qilinmoqda, avaylab, e'zozlanib asrlardan asrlarga o'tib kelmoqda, o'nlab tillarga tarjima etilib, iste'dodli kotiblar tomonidan ko'chirilib, mohir musavvirlar, naqshlarning mo'yqalami bilan ziynatlanib, insoniyat tafakkurini boyitmoqda, odamlarga ma'naviy zavq-shavq bag'ishlamoqda.

Bashariyat tarixining ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-madaniy sohalarida salmoqli o'rin tutgan siymolardan biri buyuk vatandoshimiz Zahiriddin Muhammad Boburdir. U 1483 yilning 14 fevralida Andijonda tavallud topib, 1530 yil 26 dekabrda Agrada vafot etgan. Bobur Mirzo ulug' shoir va adib, qomusiy ilm sohibi, ayni zamonda mohir lashkarboshi va yirik davlat arbobi ham edi. Uning she'riy devoni, «Boburnoma», «Aruz risolasi», «Xatti Boburiy», «Mubayyin», «Risolayi

volidiyya» (tarjima) kabi ilmiy va badiiy barkamol asarlari bizgacha yetib kelgan. Bu asarlarning har biri o'zbek nazmi va nasri rivojida muhim bosqichni tashkil etish bilan birga, adabiy-badiiy fikr taraqqiyotiga qo'shilgan katta xissa, XV asr oxiri, XVI asr boshlaridagi O'rta Osiyo, Afg'oniston va Hindistonning tarixi, jo'g'rofiyasi, etnografiyasi, o'simlik va hayvonot olami, xalqi, odamlarining kasb-kori, tili, hayot tarzi va boshqa xususiyatlari haqida bebaho ma'lumotlarni o'zida mujassam etgan manbadir.

Shuning uchun ham mazkur asarlar, xususan, «Boburnoma» ko'p asrlardan beri Sharq va G'arb tarixchilari hamda boshqa fan sohalari vakillarining diqqat-e'tiborini o'ziga tortib kelmoqda, ularning O'rta Osiyo, Afg'oniston, Hindiston va Eron tarixini o'rganishlarida muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda.

«Boburnoma» yevropada dastlab 1705-yilda Vitsen tarjimasida golland tilida chop etilgan. Lekin sal oldinroq 1697-yili fransuz sharqshunosi Bartolame Erbalo Molenli «Sharq kutubxonasi» qomusidagi «Bobur yoki Bobar» nomli maqolasida Alisher Navoiy va Zahriddin Muhammad Bobur to'g'risida ilk bor ma'lumot bergan edi.

Bobur hayoti va ijodi, xususan, «Boburnoma»ni o'rganishda, uni keng targ'ib qilishda fransuz sharqshunoslarining munosib ulushlari bor.

A.de Longperie, A.J.Klaprot, J.Dranjete, Pave de Kurteyl fransuz boburshunoslik maktabining atoqli namoyondalaridir.

Pave de Kurteyl 1871 yilda «Boburnoma»ni birinchi bo'lib asl nusxa tilidan fransuz tiliga mukammal tarjima qildi.

1980-yili Parijda Mirzo Bobur tavalludining besh yuzligiga bag'ishlab «Boburnoma»ning Bake-Grammon qalamiga mansub fransuzcha tarjimasini nashr etildi. 1985-yili esa ikkinchi nashri chiqdi. Mazkur nashrga fransuz olimi Lui Bazen, taniqli o'zbek boburshunosi Saboxat Azimjonova, hind olimi Muxibul Xasan va afg'on olimi Abdulxay Xabibiy alohida-alohida so'z boshi yozganlar. Yevropa matbuotida «Boburnoma»ning ushbu nashriga juda ko'p taqriz va xabarlar chop etildi. Lui Bazen «Boburnoma» ni yozishga nima undagan, degan savolga javob berib, bunday deb yozadi: «... u boshiga tushayotgan savdolari taqdiri azalning hukmi deb bildi va ularni fidokorlik bilan aks ettirishi muhim, deb hisobladi».

«Boburnoma»ni o'rganishga nemis olimlari xam hissa qo'shganlar. 1810-yili sharqshunos, sayyoh va olim Yulius fon Klaprot tomonidan «Boburnoma»dagi



Fargona vodiysi tasviri qismi nemis tiliga tarjima qilinib, «Osiyo adabiyoti, tarixi va tilshunosligi arxivi» kitobida Peterburgda chop ettiriladi. 1828-yili Leyptsigda A. Kayzer Jon leyden va Uilyam Erskinlarning inglizcha tarjimasini qisqartirilgan holda nemis tiliga nashr ettiradi.

«Boburnoma»ni o'rganishda ingliz sharqshunoslarining roli benihoya katta bo'lgan. ingliz sharqshunoslari Bobur Mirzo shaxsiyati, shuningdek, uning shoh asariga XIX asrning boshlaridan e'tiboran qiziq boshladilar. Hindistondagi muzey, kutubxona, turli jamg'arma va shaxsiy kutubxonalarda ko'pdan-ko'p qo'lyozmalar saqlanadi. Ingliz sharqshunosligining rivojlanishida shu omil ham katta ahamiyatga ega bo'lgan.

Jon Leyden va Uilyam Erskinlarning ko'p yillik mehnatlari natijasida 1826-yilda «Boburnoma»ning inglizcha tarjimasi chop etildi. Ushbu tarjima nafaqat ingliz tilida, balki yevropada amalga oshirilgan birinchi tuliq tarjima edi. Mazkur nashr Mirzo Bobur ijodini xamda «Boburnoma»ni chuqur va xar tomonlama o'rganishga yo'l ochib berdi. Uning yana bir ahamiyati shundaki, bir qator tillarga tarjima, aynan, shu tarjimadan amalga oshirildi. Angliyaning o'zida «Boburnoma»ning to'qqiz marta to'liq va qisqa shakllarda chop etilganining o'ziyoq bu asarga qiziqishning naqadar kuchli ekanligidan dalolat beradi.

Ikki asr mobaynida «Boburnoma»ning uchta uch xil mukammal inglizcha tarjimasi nashr etildi va ular «Boburnoma»ni jahonga mashhur etishda mislsiz ahamiyat kasb etdi.

Turk dunyosida xam «Boburnoma» jiddiy tadqiq etilgan. Ularning ichida Turkiyada amalga oshirilgan nashri ahamiyatga molikdir. Ushbu tarjimani yirik boburshunos professor Xikmat Boyir da'vati bilan o'zbek mumtoz adabiyotining bilimdonlaridan biri Rashid Raxmati Arat amalga oshirgan. Mazkur tarjima chop etilishidan oldin «Boburnoma»ning to'la matni xech qaysi turkiy xalqning ommaviy nashrida yo'q edi va X.Boltaboevning yozishicha, qo'lyozma, toshbosma va litografiya usulidagi nusxalarda xatolar ko'p bo'lib, ular asar haqida noto'g'ri tasavvur tug'dirishi mumkin edi. «Boburnoma»ning 1948-1949 va 1960-yillardagi kirill alifbosiga asoslangan o'zbekcha nashrlarini tayyorlashda mazkur turkcha tarjimadan ham foydalanilgan.



1995-yilda turkiyalik olim doktor Bilol Yujelning «Bobur devoni» nomli monografiyasi chop etildi. Unda Bobur Mirzoning boshqa asarlari qatorida «Boburnoma» haqida xam ma'lumot berilgan.

Hindiston va Pokistonda xam «Boburnoma»ni o'rganishga yetarli e'tibor berilgan. Jumladan, asar boburiylar avlodidan bulmish Mirzo Nasriddin Xaydar Kuragoniy tomonidan urdu tiliga tulik tarjima qilingan va u dastlab 1924-yilda Dehlida, 1962-yilda esa Karachida chop etilgan. Bundan tashqari, «Boburnoma»ning urdu tiliga yana bitta tarjimasi mavjud bo'lib, uni Rashid Axtar Nadviy amalga oshirgan va u 1965-yilda, keyin 1991-yilda Laxur shahrida nashr etilgan, lekin mazkur tarjima to'liq emas, boz ustiga fors tilidan o'girilgan.

«Boburnoma»ning hindcha tarjimasi 1974-yilda yangi Dehlida Hindiston Adabiyot akademiyasi tomonidan chop etilgan. Asarni taniqli mutarjim Yugjit Navalpuriy o'giran.

Yapon olimi E.Manuning «Boburnoma» bo'yicha olib borgan tadqiqotlari tahsinga sazovordir. Boburshunoslik tarixida birinchi marotaba «Boburnoma» tanqidiy matnining yaratilishining o'ziniyoq olimning bu sohadagi eng katta xizmati, deb baholash mumkin.

Jahon siyosati va madaniyati tarixida Zahiriddin Muhmmad Bobur (1483-1530) qanday o'rin tutsa, uning qalamiga mansub «Boburnoma» ham dunyo sharqshunosligida, jahon tarjimachiligi tarixida shunday mavqega ega. XVI asrda yaratilgan mazkur asar tom ma'noda turkiy madaniyatning, xususan o'zbek ma'naviy qadriyatlarining faxrli namunasi bo'lib, uning tarjimalari ham jahon tarjimachiligi tarixida alohida bir bobni tashkil etadi. Mubolag'asiz aytish mumkinki, Sharq va G'arb olimlari orasida boshqa biron asar bu qadar katta qiziqish uyg'otmagan, bu qadar sinchklovlik bilan o'rganilmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. «Boburnoma», Zahiriddin Muhammad Bobur, «Sharq» nashriyoti -matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, Toshkent, 2002 yil
2. «Boburnoma» - Viler Tekston tarjimasida, Muxdmatismoyil Sobirov, filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan avtoreferatidan, Toshkent, 2000 yil



3. «Tashakkur, ingliz sharqshunoslari!», Oltin davrim gazetasi, 2005 yil 22 fevral, 3 (69)-son
4. Zokirov K. Jamolxonov X. O'zbek botanika terminologiyasi masalalari. - Toshkent: 1966.

